

# “O'zkiyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ishlari — R Eshbekov

// 03 May 2023 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/video/uzkiyosanoat-aj-korxonalarining-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-brifing>

Joriy yil 1-chorakda "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida mablag'larni talon-toroj qilish oqibatida 5,5 mlrd so'mlik zarar yetkazilgan. Bu haqda AOKAda o'tkazilgan brifingda aksiyadorlik jamiyati axborot xizmati rahbari Rustambek Eshbekov ma'lum qildi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda olib borgan chora-tadbirlari natijasida jami yetkazilgan moddiy zararining 4,5 mlrd so'mga yaqin qismi undirilishiga erishildi.

Hisobot davrida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligi ta'minlanishi hamda ularni "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishi natijasida jami 3,4 mlrd so'mlik pul mablag'lari asossiz sarflanishining oldi olinib, iqtisod qilindi.